XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2022 - yil 4 - fevral VI-43-19-8-0-K/22 Surxondaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari viloyat Kengashining "Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash haqida" 2022-yil 21-yanvardagi VI-42-15-8-0-K/22-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash yuzasidan viloyat Davalat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ning bergan hisoboti tinglanib, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyentiga o'zgartirish kiritish yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining "Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash haqida" 2022-yil 21-yanvardagi VI-42-15-8-0-K/22-son qarorining ilovasi ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, (shahar) tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Bobolov T.A.**

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 4 февралдаги
VI-43-19-8-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Surxondaryo viloyatida yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori

T/r	**Hudud nomi**	**Qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori** (Yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)
1.	Angor tumani	0,70
2.	Oltinsoy tumani	0,60
3.	Boysun tumani	0,50
4.	Muzrabot tumani	0,50
5.	Denov tumani	1,00
6.	Jarqo‘rg‘on tumani	0,90
7.	Qumqo‘rg‘on tumani	0,70
8.	Qiziriq tumani	0,60
9.	Sariosiyo tumani	0,70
10.	Termiz tumani	0,90
11.	Sherobod tumani	0,70
12.	Sho‘rchi tumani	0,80
13.	Uzun tumani	0,70
14.	Bandixon tumani	0,50